
Mahalla obodligi – yurt obodligi

✍️ Istiqlolimizning 31-yillik to'yini munosib kutib olish maqsadida tumanimiz hududida keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Qoshqayron mahalla fuqarolar yig'ini raisi Dilmurodjon Hamroevning so'zlariga ko'ra, mahallada bayramga bag'ishlab keng qamrovli targ'ibot ishlari amalga oshirilayotir.

□ - Tumanimiz hokimi tomonidan olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida berilgan topshiriqlarini ijro etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgiladik va mahalla fuqarolar yig'ini qoshida tashkil etilgan "Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati" komisiyasi a'zolari ishtirokida mahalla hududidagi xonadonlar va ijtimoiy soha ob'ektlari o'rganildi. Mahallamizda keng qamrovli obodonlashtirish ishlari boshlab yuborildi. - deydi mahalla raisi.

✍️ Mahalla raisining ma'lumotiga ko'ra, aholi o'rtasida istiqlol bayramini munosib kutib olish maqsadida "Mahallabay" tizimi orqali xonadonma-xonadon va uyma-uy yurish orqali targ'ibot ishlari olib borilayotir. Targ'ibot ishlari samarasi o'laroq, fuqarolar mahalla obodonchiligiga e'tibor qaratishmoqda. Ko'chalarni tozalash, devorlarni oqlash, daraxtlarga shakl berish va ko'chalardagi ariqlarni tozalash ishlari olib borilmoqda. Ishlar samarasini kuchaytirish maqsadida mahalla raisi tashabbusi bilan hashar ham tashkil etildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-23 12:04:30